

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

HAVONI KONDITSIYALASH
laboratoriya ishlarini bajarishga
USLUBIY KO'RSATMA

TOSHKENT 2023

UDK 697.94.001.2

Karimov Q.F. Salmonova N.A. Yo'lliyev Sh.R. Havoni konditsiyalash fanidan laboratoriya ishlarini bajarishga uslubiy ko'rsatma. T.: 2023. 20 bet.

Uslubiy ko'rsatma 60720700 – Texnologik mashinalar va jihozlar (sovutish mashinasozligi) ta'lim yo'naliishi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda "Havoni konditsiyalash" fan dasturida ko'zda tutilgan laboratoriya ishlarini bajarish tartibi berilgan. Ko'rsatmada har bir laboratoriya ishining qisqacha nazariy asoslari, ishni bajarish asboblari, jihozining tuzilishi, ishlash prinsiplari bayon etilgan. Ishni bajarishda o'lchanadigan, hisoblanadigan kattaliklar tushuntirilgan. Talabalar uchun hisobot shakli berilgan.

Toshkent davlat texnika universiteti Ilmiy-uslubiy kengashi(2023 yil.
“___” son qarori) bilan nashrga tavsiya etildi.

Taqrizchilar: Mavlanov E.T. 1. TKTI "Kimyoviy tenologik jarayonlar va qurulmalar" kafedrasi dotsenti.
Qoraboyev A.S. 2.Tosh DTU "Sovutish va kriogen texnikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2023

1-laboratoriya ishi
Havo oqimining o‘rtacha tezligini o‘lchash.

I. Ishdan maqsad.


1. Havo xossalari haqidagi bilimlarni mustahkamlash.
2. Tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini hosil qilish.
3. Mikroiqlim hosil qilishda havo tezligining roliga e`tiborni qaratish.

II. Topshiriq.

1. Parrakli anemometr yordamida havo oqimining tezligi o‘lchansin.
2. Bajarilgan ish haqida hisobot tuzilsin. Ishga ajratilgan vaqt – 4 soat.

III. Nazariy qism.

Parrakli ASO-3 anemometrning tuzilishi va ishlash printsiyi.



1-rasm. Parrakli anemometr (ASO-3)

1 – parrak; 2 – sterjen; 3 – trubkali o‘q; 4 – prujina; 5 – po‘lat o‘q; 6 – vtulka; 7 – gayka; 8 – prujina; 9 – podshibnikli vtulka; 11 – dasta; 12 – chervyak; 13 – birliklar shkalasining strelkasi; 14 – siferblat; 15 – qulqocha; 16 – arretir; 17 – mingliklar shkalasining strelkasi; 18 – yuzliklar shkalasining strelkasi.

Anemometrning havoni qabul qilgichi bo‘lib podshibnikli vtulka 9 bilan trubkali o‘qqa 3 o‘tkazilgan parrak 1 hisoblanadi.

Vtulkalar 9 po‘lat o‘qda 5 aylanadi, o‘qning bir uchi oboymaga kavsharlangan va qo‘zg‘almas tayanchiga mahkamlangan, ikkinchi uchi esa chokli sterjen 2 teshigidagi vtulkaga 6 gayka 7 bilan mahkamlangan. O‘qning 5 tarangligi prujina 8 bilan ta’minlanadi. O‘qning 3 o‘q bo‘yicha lyufti prujina 4 bilan rostlanadi.

Trubkali o‘q 3 uchiga parrak aylanma harakatini hisoblash mexanizimining tishli reduktoriga uzatuvchi chervyak 12 mahkamlangan. Hisoblash mexanizmi uchta strelkaga ega, uning siferbloti, mos ravishda, uchta shkalaga esa: birliklar, yuzliklar va mingliklar.

Hisoblash mexanizmi quyidagicha ishlaydi: chervyak 12 chervyak g‘ildiragi va trib orqali harakatni markaziy g‘ildirakka uzatadi, g‘ildirak o‘qiga birliklar shkalasining strelkasi 13 mahkamlangan. Markaziy g‘ildirak tribi oraliq g‘ildirak orqali kichik g‘ildirakni harakatga keltiradi; kichik g‘ildirak o‘qiga yuzliklar shkalasining strelkasi 18 o‘tkazilgan .

Kichik g‘ildirakdan ikkinchi oraliq g‘ildirak orqali aylanma harakat ikkinchi g‘ildirakka uzatiladi; ikkinchi g‘ildirak o‘qi mingliklar shkalasining strelkasini tutib turadi .

Siferblatda 14 birliklar, yuzliklar va mingliklar shkalalari chizilgan.

Mexanizmni ishga tushirish va to‘xtatish arretir 16 vositasida amalga oshiriladi. Arretirning bir uchi chervyakli g‘ildirak podpyatnigi hisoblangan plastinali prujinaga mahkamlangan, ikkinchi uchi esa asbob korpusidan paz orqali chiqarilgan.

Hisob mexanizmini to‘xtatish uchun arretirning 16 chiqib turgan qismidan soat strelkasi bo‘yicha buriladi.

Arretirni 16 soat strelkasiga qarshi buralganda chervyakli g‘ildirak chervyak 12 bilan ishlaydi va anemometr parragi hisoblash mexanizmi bilan ulanadi.

Asbob mexanizmi dastakli 11 metall korpusga mahkamlangan. Dastak trubka ko‘rinishiga ega va undan asbobni yog‘och cho‘pga o‘rnatishda foydalansa bo‘ladi.

Arretirning 16 chiqib turgan qismini ikki tomonga asbob korpusida qulqochalar 15 o‘rnatilgan. Ulardan ip o‘tkaziladi va yog‘och cho‘p bilan


balandga o‘rnatilgan anemometr yoqib-o‘chiriladi. Ip arretir 16 uchiga bog‘lanadi.

Parraklar mexanik zarbalardan (turtkilardan) silindir (diffuzor) bilan himoyalangan; bu silindir o‘lchanayotgan havo oqimi kesimini cheklash uchun ham xizmat qiladi.


IV. Ishni bajarish tartibi.

Ishni boshlashdan oldin arretir vositasida uzatuvchi mexanizm o‘chiriladi va hisoblagichning ko‘rsatishi uchta shkala bo‘yicha yozib olinadi. Shundan so‘ng, anemometr havo oqimiga parraklar o‘qini oqim bo‘yicha joylashtiriladi. 10-15 sekunddan keyin anemometr va sekundomer mexanizmlari bir vaqtida ishga tushiriladi.

Anemometr havo oqimida bir-ikki minut davomida ushlab turiladi. So‘ngra mexanizm va sekundomer to‘xtatiladi, hisoblagichning oxirgi ko‘rsatishi va sarflangan vaqt sekundlarda yozib olinadi. Hisoblagichning dastlabki va oxirgi ko‘rsatishlari farqini sarflangan vaqtga bo‘lib bir sekunddagi bo‘linmalar soni aniqlanadi.



2-rasm. Bir sekunddagi (shkalalar) bo‘linmalar sonini havo oqimi tezligiga bog‘liqlik grafigi ($0,3 \div 1,0$ m/s da) *I-1sekunddagi bo‘linmalar soni; II-tezlik, m/s.*



3-rasm. Bir sekunddag'i (shkalalar) bo'linmalari sonini havo oqimi tezligiga bog'liqlik grafigi ($1 \div 5,0$ m/s da) I-1sekunddag'i bo'linmalar soni; II-tezlik, m/s.

Oqim tezligi anemometrga ilova qilingan graduirovkalangan grafikdan quyidagicha topiladi: grafikning vertikal o'qida anemometr xisoblagichi shkalasining bir sekunddag'i bo'linmalari soni topiladi. Bu nuqtadan grafikdagi to'g'ri chiziqqacha gorizontal o'tkaziladi. Hosil bo'lgan kesishish nuqtasidan gorizontal o'qqa verikal tushiriladi.

Kesishish nuqtasi havo oqimining qidirilayotgan m/s birlikdagi tezligini beradi.

Anemometrga ikkita grafik ilova qilingan (2 va 3-rasmlar): birinchisi havo oqimining tezligi 1 m/s gacha bo'lganida, ikkinchisi 1 dan 5 m/s gacha qo'llaniladi. O'lchangan va grafiklardan topilgan qiymatlar 1-jadvalga kiritiladi.

1-jadval

To'yingan suv bug'inig bikrligi,	Harorat, $^{\circ}\text{S}$					
	-	-	-20	0	20	40
E_c	1,9	19	125	610	2340	7380
E_M	1,1	13	103	610	-	-

V. Natijalar tahlili.

Natijalarni muhokama qilishda olingan natijalar misolida ushbularni tushintirishi lozim: nima uchun havo oqimining tezligi yo'naltirishlar

bo‘yicha o‘zgaradi va bu o‘zgarish tezlikni aniqlash bilan qanday bog‘langan.

VI. Laboratoriya ishini bajarish bo‘yicha hisobot shakli.

Laboratoriya ishining hisobotida quyidagilar aks etishi lozim:
Ishning qisqacha mazmuni;
To‘ldirilgan o‘lchovlar jadvali;
Bajarilgan ish natijalari bo‘yicha xulosalar.

VIII. Nazorat savollari.

1. Anemometr vositasida o‘lchash prinsipi qanday?
3. Anemometr qanday asosiy qisimlardan iborat?
4. Anemometr vositasida tezlikni o‘lchashda qaysi faktorlar asosiy hisoblanadi?

2-laboratoriya ishi

HAVO NAMLIGINI ASPIRATSION PSIXROMETR VOSITASIDA O‘LCHASH

I. Ishning maqsad.

1. Havo namligini ifodalovchi kattaliklar bilan tanishish.
 2. Psixrometrik asbobning ishlash prinsipini o‘rganish.
 3. Tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini hosil qilish.
- Ishga ajratilgan vaqt – 4 soat.

II. Topshiriq

1. Aspiratsion psixrometr vositasida havoning nisbiy namligini o‘lchansin.
2. Bajarilgan ish haqida hisobot tuzilsin.

III. Nazariy qism.

Havo (umuman, gaz) namligi haqida sonli axborotlarni olish bilan shug‘ullanuvchi o‘lchash texnikasining bo‘limi gigrometriya deb ataladi.

Sovutish texnikasida havo namligi, ya`ni gigrometriya ham havoni sovutish jihozlarini yaratish, tadqiq qilish va sinashda hamda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash texnologiyalarini tadbiq qilishda sharoitlarini nazorat qilishda muxim urin tutadi. Gigrometriyaning axamiyati sovutish texnikasi bilan uyqash sohalarda, ayniqsa xavoni konditsilash texnikasida katta. Havoni namligining o`zi aslida fizik kattalik emas. Uni suv bug`ini o`zida tutgan havoning umumlashtirilgan sifat harakteristikasi deb qarash kerak. Bu harakteristika son jihatdan bir nechta fizik kattaliklar bilan ifodalanishi mumkin.

Shu sababli, havo namligini harakterlovchi kattaliklarnigina o`lchash mumkin. M.A. Berliner namlikni ifodalovchi kattaliklarni to`rt guruhga bo`lishini taklif etgan.

Birinchi guruhga suv bug`i kontsentratsiya-sini ifodalovchi kattaliklar kiradi. Bularga absolyut namlik a , ya`ni havo hajm birligidagi suv bug`ining massasi (g/m^3 da) va suv bug`ining bikrliги parsial bosimi e (Pa yoki mm.sim.ust. da) kiradi. e kattalik biror haroratda $0 \leq e \leq E$ oraliqda o`zgarishi mumkin, bu yerda E – shu haroratda to`yingan suv bug`inig bikrliги. Manfiy haroratlarda bikrlik suv uchun (E_c) va muz yoki qirov (E_M) uchun qabul qilinadi. 1-jadvalda shu kattalikning ayrim qiymatlari berilgan.

1-jadval

To`yingan suv bug`inig bikrliги,	Harorat, $^{\circ}\text{S}$					
	– 60	– 40	-20	0	20	40
E_c	1,9	19	125	610	2340	7380
E_M	1,1	13	103	610	–	–

Ikkinci guruhga namlik nisbatlari kiradi. Bularga namlik saqlami (namlikning massaviy ulushi) d , yani suv bug`i massasini o`sha hajmdagi quruq havo massasiga nisbati va suv bug`i hajmini gaz hajmiga nisbatiga teng bo`lgan namlikning hajmiy ulushi X_0 kiradi. Bu kattalik ming va million ulushlarda ifodalanadi. Namlikning mln^{-1} da ifodalanuvchi hajmiy ulushi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$X_0 = \frac{e}{P - e} * 10^6 \quad (1)$$

bu yerda e – namlikning partsial bosimi; P – nam havoning bosimi.

Uchinchi guruhga shudring nuqtasi harorati, yani havodagi suv bug`i izobarik sovutilganda to`yinishi holatiga keluvchi harorat kiradi.

O‘lchov birligi bo‘lib Kelvin va gradus Selsiy (${}^{\circ}\text{S}$) hisoblanadi. Shudring nuqtasi bilan birga amaliyotda qirov (muz) nuqtasi ham ishlatiladi. Qirov nuqtasi shunday haroratki, bunda suv bug‘i muzga nisbatan to‘yingan bo‘ladi. Bu tushunchalar farqi shuki 0 ${}^{\circ}\text{S}$ dan past haroratlarda kondensat suyuq fazoda ham qattiq fazoda ham bo‘lishi mumkin, bir xil haroratlarda to‘yingan suv bug‘ining bosimi esa suv ustida va muz ustida har xil.

To‘rtinchi guruhga nisbiy namlik, φ yani absolyut namlikni berilgan haroratda to‘yinish holatdagi maksimal namlikka nisbati kiradi. Boshqacha aytganda, bu suv bug‘ining parsial bosimini shu haroratdagi to‘yingan bug‘ parsial bosimiga nisbatidir:

$$\varphi = e/E \quad (2)$$

Odatda φ foizlarda ifodalanadi. Amaliy gigrometrarda, ko‘proq, namlikning hajmiy ulushi, shudring nuqtasi harorati (yoki oddiy qilib aytganda, shudring nuqtasi) va nisbiy namlik o‘lchanadi.

Namlikni harakterlovchi kattaliklar asosiy formulalari, zarur hollarda, bir kattalikni boshqasi orqali aniqlashga imkon beradi. Masalan, agar shudring nuqtasi t_s (suv ustida) va havo harorati o‘lchangan bo‘lsa, u holda (2) formuladan foydalanib nisbiy namlikni φ topsa bo‘ladi. Bunda suv bug‘ining partsial bosimi $e=E(t_c)$, bu yerda $E(t_c)$ to‘yingan suv bug‘ining t_c haroratdagi (1-jadval bo‘yicha) bosimi. $E=E(t)$ kattalikni ham 1-jadvaldan t harorati topiladi. (2) formulaga qo‘yib quyidagini topamiz:

$$\varphi = \frac{E(t_c)}{E(t)} * 100\% \quad (3)$$

Teskari masala ham shunga o‘xshash ishlanadi: o‘lchangan nisbiy namlik φ bo‘yicha shudring nuqtasi t_c aniqlansin. 1-jadvaldan havo haroratini bilgan holda $E(t)$ aniqlanadi va (3) formuladan quyidagicha topiladi:

$$E(t_c) = \varphi E(t) \quad (4)$$

1-jadvaldan $E(t_c)$ kattalikka mos keluvchi harorat t_c harorat aniqlanadi.

Agar nisbiy namlik o‘lchangan bo‘lsa, u holda namlikning hajmiy ulushini topsa bo‘ladi. Buning uchun qo‘sishimcha tarzda nam havo bosimi R va uning harorati t o‘lchanadi. e kattaligi (2) formuladan aniqlanadi va keyin (1) formulaga qo‘yib X_0 kattaligi aniqlanadi. Teskari masalalarni ham yechish mumkin: X_0 kattaligi bo‘yicha nisbiy namlik va shudring nuqtasini topish. Buning uchun partsial bosim aniqlanadi:

$$e = \frac{P}{1 + \frac{10^6}{x_0}} \quad (5)$$

U bo'yicha t_c va φ kattaliklari aniqlanadi.


Havo namligini harakterlovchi boshqa hamma kattaliklar formulalardan hisoblab topilishi mumkin.

IV. M-34 elektromotorli aspiratsion psixrometrning tuzilishi va ishlash prinsipi.

Psixrometrning ishlash prinsipi. Havo namligiga bog'liq ravishda quruq va ho'l termometrlarning ko'rsatkichlari farqiga asoslangan.

Psixrometr himoya trubkalari 1, aspiratsion chashka 2, havo o'tkazish trubkasi 3 va termohimoya 5 dan iborat termoushlagichga mahkamlangan ikkita bir xil simob termometrlaridan 4 tashkil topgan.

Termometrlar idishlari malum oraliqda joylashtirilgan himoya trubkalariga joylashtirilgan. Himoya trubkalarining vazifasi – termometrn quyosh nurlaridan isishdan himoyalashdir, buning uchun trubkalar tashqi yuzasi yaxshilab polirovka qilinib, nikellangan. Trubkalar bir–biridan teploizolyatsion shaybalar bilan izolyatsiya qilingan.



1-rasm. Elektromotorli aspiratsion M-34 psixrometr

1 – himoya trubkasi (2 ta); 2 – aspiratsion chashka; 3 – havo o‘tkazish trubkasi;
4 – simobli termometr (2 ta); 5 – termohimoya (2 ta); 6 –vilkali sim; 7 – aspiratsion boshcha;
8 – shamoldan himoyalagich; 9 – ilmoq;
10 – pipetka; 11 – rezina trubkalar uchun qisqich; 12 – ballon.

Himoya trubkalari aspiratsion chashka bilan havo o‘tkazish trubkasi bilan birlashtirilgan, trubka yuqori uchiga aspiratsion boshcha mahkamlangan. Aspiratsion boshchada elektromotor va ventilyator bor. Elektr manbaga ulanish uchun psixrometr vilkali 6 simga ega.

Termometrlar yon tomondan mexanik zarbalardan termo himoyalar bilan himoya-langan. Psixrometr shamoldan himoyalagichga 8 ega. Psixrometrni osish uchun bir uchi kesik ilmoq 9 bor. Ilmoq mahsus ustunga burab kiritiladi va unga psixrometr osiladi.

Ishni boshlashdan avval o‘ngdagи termometr bir qavat bo‘z bilan o‘raladi va pipetkali 10 rezina ballon 12 yordamida toza distillangan suv bilan ho‘llanadi.

V. Ishlash va kuzatish tartibi.

5.1. Psixrometr quydagiicha ishlaydi: Ventilyator aylanishi bilan psixrometrga havo so‘riladi, havo termometr rezervuarlarini yuvib o‘tib, havo o‘tkazish trubkasidan ventilyatorga boradi va aspiratsion boshchadagi teshiklardan tashqariga haydaladi.

Havo termometrlar rezervuarlarini yuvib o‘tishi tufayli quruq termometr shu oqim haroratini ko‘rsatadi, ho‘l termometr ko‘rsatishi esa kamroq bo‘ladi, chunki bo‘z yuzasidan suv bug‘langanida rezervuar soviydi.

Havoning namligi quruq va ho‘l termometrlar ko‘rsatishlari bo‘yicha maxsus psixrometrik jadvallar yoki grafik yordamida topiladi, havo harorati esa quruq termometr bo‘yicha aniqlanadi.

Psixrometrdan xona yoki tashqi havo namligi va haroratini aniqlashda foydalansa bo‘ladi.


Tashqi havoni kuzatishda psixrometr yerdan 2 m balandlikka osiladi.

O‘lchashda shunga qat’iy e’tibor berish kerakki, shamol psixrometrdan kuzatuvchi tomonga essin.

5.2. Psixrometr bilan ishslash tartibi:

a) tashqi havo namligini o‘lchashda psixrometr yozgi vaqtida xonodon 15 minut, qishki vaqtida esa kamida yarim soat avval oldin olib chiqib ustunga osiladi;

b) termometr rezervuaridagi bo‘z ho‘llanadi. Qishda xonadan tashqarida kuzatish boshlanishidan yarim soat , yozda esa to‘rt minut avval amalga oshiriladi. Buning uchun distllangan suv bilan to‘ldirigan balloni pipetka olinadi va asta siqish bilan suv pipetkaga chiziqli belgigacha kiritiladi. Agar chiziqli belgi bo‘lmasa, u xolda suv pipetka chetiga 1 sm yetkazmasdan kiritiladi va uni shu satxda qisqich 11 bilan ushlab turiladi. So‘ngra pipetka ximoya turbasi ichiga kiritilib, termometr rezervuaridagi



2-rasm. Psixrometrik diagramma ($p = 101,3 \text{ kPa}$).

bo‘z xo‘llanadi. Bir oz vaqt kutib turilib pipetkani trubadan olmasdan qisqich suv qaytariladi , so‘ngra pipetka chiqarib olinadi; c) elektromator yoqiladi.

d) elektromator yoqilaganidan so‘ng 4 minutdan keyin termometrlar ko‘rsatishi yoziladi.

Psixrometr dan -10°S sovuqdan past bo‘lgan haroratda ham foydalanilsa bo‘ladi, lekin bunda har gal batist holati tekshiriladi: unda o‘tasovugan suv yoki muz paydo bo‘lganmi. Ventlyatorni kuchli shamoldan (4 m/s dan yuqori) himoyalash uchun aspiratsion boshchadagi kesiklarga himoyalagichni ventil-yator aylanish yo‘nalishi bo‘yicha kiydirish kerak.

Havo namligini (absolyut va nisbiy) hisoblash psixrometr ko‘rsatkichlari bo‘yicha psixrometrik jadvallar vositasida bajariladi. Bundan tashqari nisbiy namlik psixrometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha psixrometrik grafikdan (2-rasm) aniqlanishi mumkin.

Nisbiy namlikni psixrometrik grafikdan quyidagi tartibda aniqlanadi: Vertikal chiziqlar bo‘yicha quruq termometr ko‘rsatkichlari, qil chiziqlar bo‘yicha ho‘l termometr ko‘rsat-kichlari belgilanadi; Bu chizqlar kesishish nuqtalar foizlardagi qiymati topiladi. O‘nli foizlarga tegishli chiziqlar grafikda 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90 sonlari bilan belgilangan.

Misol. Quruq termometr bo‘yicha harorat $21,7^{\circ}\text{S}$, ho‘l termometr bo‘yicha – $14,3^{\circ}\text{S}$. Grafikda shu haroratlarga tegishli vertikal va qiya chiziqlar kesishish nuqtasini topamiz; nuqta 42 dan yuqori, lekin 44 dan pastga joylashgan. Demak, nisbiy namlik grafikdan foydalanish nisbiy namlikni aniqlashgina talab etilganida qulay. Absolyut namlikni topishda psixrometrik jadvallardn foydalanilgani uchun barcha qolgan hisoblarni ham 2-rasmdan foydalanib bajarish qulay.

VI. Natijalar tahlili.

Natijalarni tahlil qilishda o‘lchangan nisbiy namlik I-d diagrammadan aniqlangan qiymat bilan mos yoki mos emasligiga xulosa qilinadi.

VII. Laboratoriya ishini bajarish bo‘yicha hisobot shakli.

Laboratoriya ishining hisobotida quydagilar aks etishi lozim:

Ishning qisqacha mazmuni;

O‘lchash natijalari;

Bajarilgan ish natijalari bo‘yicha xulosalar;

VIII. Nazorat savollari.

1. Daslabki qayta o‘zgartirgichlar fizik moxiyati nimada?

2. Psixometr qanday ishlaydi?

3. Havo namligini aniqlash hisobiy formulalarini yozing?

3-laboratoriya ishi

KOMFORT KONDITSIONERLARNING TUZILISHI BILAN TANISHISH

I. Ishning maqsad.

1. БК turidagi deraza komfort konditsioneri bilan tanishish.
2. БК-1500 va БК-2500 konditsionerlarining ishlash prinsipini

o‘rganish.

3.

II. Topshiriq.

3. BK turidagi deraza komfort konditsioneri-ning konstruksiyasi o‘rganilsin.

4. Bajarilgan ish haqida hisobot tuzilsin.

Ishga ajratilgan vaqt – 4 soat.

II. Nazariy qism.


BK konditsionerlari yilning yoz mavsumida maydoni $25m^2$ (BK-1500) va maydoni $35m^2$ (BK-2500)gacha tashkil topgan xonalarnisovutishga mo‘ljallangan. Tashqaridagi harorat $+35^{\circ}C$ bo‘lganida konditsioner xizmat ko‘rsatilayotgan xonada haroratni avtomatik ravishda $+18$ dan $+28^{\circ}C$ gacha saqlaydi.

Koditsioner quydagilarni bajaradi:

- xona havosinisovutadi;
- berilgan haroratni avtomatik ushlab turadi;
- havoni changdan tozalaydi, shamollatadi;
- havo namligini kamaytiradi;
- havo oqimi yo‘nalishini va harakatlanish tezligini o‘zgartiradi;
- tashqi muhit bilan havo almashtiradi.


Sovutish agenti – freon-22. Konditsioner 220 V kuchlanish va 50 Gs chastotadagi o‘zgaruvchan tokda ishlaydi. Konditsioner ikkita berilgan rejimda, ya’ni shamollatish vasovutish (kompressor va ventilyator ishlaydi) yoki faqat shamollatish (faqat ventilyator ishlaydi) rejimida ishlaydi. Konditsioner deraza romiga shunday joylashtiriladiki, uning kondensatori tashqariga qaragan bo‘lishi kerak. Metall to‘sqli rasosiga mahkamlangan konditsioner ikkita bo‘lingan germetik zonalarga ega: tashqi va ichki. Konditsionerning asosiy ishchi qismlariga:sovutish agregati, ventilyatorlar bilan birgalikdagi ikkita aylanish tezligiga ega bo‘lgan umumiy elektrodvigatel, ishga tushirish-himoya qurilmasi bo‘lgan boshqaruv pulti kiradi. Konditsionerning ichki qismida markazdan qochma ventilyator joylashtirilgan, u xonaning havosini dekorativ panelning panjara qismidan so‘rib olishga xizmat qiladi, tozalangan, changsizlantirilgan,sovutilgan havo filtr, bug‘latkich hamda buriluvchan panjaraga haydaladi. Kompressor ishga tushganida

ventilyatorlar elektrodvigateli yoqiladi, lekin sovutish sistemasi o‘chiqligi va ventilyatsiya rejimida ham u yoqilishi mumkin. Boshqaruv pultida ishga tushirish-himoya qurilmasi joylashtirilgan, uning vazifasi konditsionerni yoqib o‘chirish, xonada istalgan haroratni o‘rnatish, kompressor dvigatelini ortiqcha yuklanishdan himoyalash.



1-rasm. BK-1500 konditsioneri, umumiyo ko‘rinish


1 – buriluvchan panjara; 2 – boshqaruv pulti; 3 – qobiq; 4 – ustki panel havo tozalovchi filtr bilan; 5 – jalyuzali panel; 6 – ustki panelni mahkamlovchi vint, 7 – shnur.



2-расм. BK-1500 konditsioneri, ishslash sxemasi

8 – kondensator; 9 – kompressor; 10 – suyuqlik ajratgich; 11 – filtr-quritgich; 12 – kapillyar trubka; 13 – pult boshqaruv; 14 – to’siq devor; 15 – havo filtri; 16 – bug’latgich; 17 – markazdan qochma ventilyator; 18 – ventilyatordan ajratib turgich; 19 – ventilyator elektrodvigateli; 20 – o’qli ventilyator.

Konditsionerning asosiy ishchi qismlariga:sovutish agregati; umumiy elektrodvigatelli ventilyatorlar; boshqaruv pultidagi boshqaruv-himoya qurilmasi kiradi. Germetik sovutish agregati kompressor 9, kondensator 8, filtr-quritgich 11, suyuqlik ajratgich 10 va trubalar sistemasidan tashkil topgan. Tashqaridagi qismida kompressor, kondensator, quritgich va suyuqlik ajratgich, bug’latgich esa ichkari qismida joylashtirilgan. Sovutish aggregatining sistemasi moy va freon-22 bilan to’ldirilgan. Elektrodvigatel yoqilganda agregat quydagicha ishlaydi: freon bug’i kompressor 9 dan kondensator 8 ga haydaladi. Kondensatorda bug’ o’qli ventilyator 20 yordamida haydaladigan tashqi havoga issiqlik berishi hisobiga suyuqlanadi. Keyin esa suyuk freon filtr-quritgich 11 dan, kapillyar trubka 12 dan o’tib, bug’latgichga 16 keladi. Kapillyar trubka kondensator va bug’latgich o’rtasida bosimni tushirib beradi, shu tufayli suyuq freon bug’latgichga keladi. Ventilyator yordamida so‘riladigan va bug’latgich devorlariga tegadigan havo xona havosining issiqligini yutib sovutadi. Sovutilgan havo oqimi buriluvchan panjara orqali xonaga kiradi. Bug’latgichdan kompressorga sovutish agentining bug’i so‘rilib, sikl takrorlanadi. Ikkita tezlikli elektrodvigatel 19 bilan ventilyator 20 tashqaridagi qismda joylashgan, u qobiq devorining yon qismidagi panjaralar orqali so‘rilayotgan tashqi havo bilan kondensatorni sovutadi. Markazdan qochma ventilyator esa konditsionerning ichki qismida joylashgan bo‘lib, u xonadagi havoni dekorativ panjara qismidan filtr 15 va bug’latgichga so‘rib, xonaga changlardan tozalangan hamda sovutilgan havoni buriladigan panjara 1 orqali haydaydi. Kompressor yoqilganida ventilyatorlar elektrodvigateli ham yoqiladi, lekin sovutish sistemasi o’chiqligida ham ventilyatsiya rejimini yoqish mumkin. 3-rasmda konditsionerning elektr sxemasi keltirilgan.



3-rasm. BK-1500 konditsioneri, elektr sxemasi

СПЭ – ishga tushirish kondensatori, sig‘imi 60 mkf, 320 V kuchlanishga;

MK – kompressor; CRБ – ishchi kondensator; MB – bir fazali elektrodvigatel; РНП – ishga tushirish relesi, 10 A, 250 V; ДРТ – harorat-datchik rele; PTT – harorat-tok relesi; R – qarshilik rezistori 100 kOm

Ishga tushirish himoya qurilmasi quyidagilardan iborat: sig‘imi 60 mkf bo‘lgan elektr kondensatori (СПЭ), kompressor (MK), elektrodvigateli yoqish uchun; bir fazali elektrodvigatel (МБ) va MK ishini ta’minalash uchun blokli ishchi kondensator (CRБ); kompressor (MK) elektrodvigateli yoqilganidan so‘ng ishga tushirish kondensatorni (СПЭ) o‘chirish uchun ishga tushirish relesi РНП; konditsionerni avtomatik boshqarish uchun termostat ДРТ (harorat-datchik rele); 30° dan 15°S gacha haroratni sozlash; kompressor (MK) elektrodvigatelinini ortiqcha yuklanishdan himoyalash uchun yuqori harorat-tok relesi (PTT); ishga tushirish elektrolitik kondensatori (СПЭ) o‘chirilgandan so‘ng zaryadlash uchun ОМЛТ-0,5 kOm rusumdagи (R) rezistr.

БК-1500 konditsionerining asosiy texnik xarakteristikaları

Konditsioner	
Тури	Avtomatik harorat sozlovchi, avtonom
Sovutish unumдорлиги, <i>kkal/soat</i>	1500
Istyemol kuvvati, <i>Vt</i> , ko‘pi bilan	1000

Nominal kuchlanish, V	220
Shovqin darajasi, dB_A ,	58 dan ko‘p emas
Ishchi tok, A , ko‘pi bilan	5
Umumiy o‘lchamlari, mm	$400 \times 600 \times 585$
Massa, kg	51
Kompressor	
turi	Rotatsion
Sovutish unumdrorligi, $kkal/soat$	1750
Sarflaydigan quvvat, V_t	854
Ishchi tok, A	4,4
Quvvat koeffisenti	0,875
Dvigatel aylanish soni, ayl/min	2910
Ventilyatorlar dvigatellari	
turi	Ikki tezlikli, bir fazali
Nominal kuchlanish, V	220
Sarflaydigan quvvat, V_t	40/18
Aylanish tezligi, ayl/min	
– maksimal	810
– minimal	625

BK-2500 konditsioneri maydoni $35m^2$ gacha mo‘ljallangan xonalarnisovutish, shamollatish, namlikni kamaytirish, havoni changdan tozalashuchun o‘rnataladi. Qurilma xona haroratini tashqi muhitga nisbatan $5...10^\circ S$ gacha tushirishi mumkin.

BK-2500 konditsionerini asosiy texnik xarakteristikasi

Sovutish unumdrorligi, V_t	2500
Sarflaydigan quvvat, V_t	1600
Sarflaydigan kuchlanish, V	220
Ventilyator elektrodvigateli	Ikki tezlikli, bir fazali
– nominal quvvat, V_t	60
– aylanish tezligi,	700....900

<i>ayl/min</i>	
Kompressor	Rotasion, elektrodvigatelli
- aylanish tezligi, <i>min⁻¹</i>	2900

IV. Ish tartibi.

1. Ishlash stoliga BK konditsionerini qo‘yib, uning ichki qismini ko‘rish maqsadida ustidagi qobig‘i yechiladi.
2. BK konditsioneri, asosiy elementlarining konstruksiyasi bilan tanishiladi.
3. Konditsioner yig‘iladi.

V. Ishning hisoboti

1. Konditsionerning tuzilishi, texnik xarakteristikasi.
2. BK konditsionerining prinsipial sxemasi.

VI. Nazorat savollari

1. Komfort konditsionerlarning qanday turlari mavjud?
2. BK turidagi komfort konditsionerlarining tuzilishi va ishslash prinsipi qanday?
3. BK turidagi konditsionerlarning qanday avzallik va kamchiliklarini bilasiz?

1. Богословский В.Н., Кокорин О.Я. Кондиционирование воздуха и холодаоснабжение.–М.:Стройиздат,1985 с.
2. Karimov Q.F., Qoraboev A.S. Havoni konditsiyalash jarayonlari. – Т.: ToshDTU. 2012. – 57 б.
3. Сибикин Ю.Д. Отопление, вентиляция и кондиционирование воздуха. Учеб. пособ. для сред. проф. образов. – М.: Издат. центр «Академия». 2004. – 306 с.